

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Umumiy o‘rta ta’lim maktabida “Ona tili” darsligidagi “Tutilmay gapiraman” mavzusida noan’anaviy dars uslubiva o’quvchining nutqini o’stirishga qaratiladigan metodlar**

***Ko‘charova Ergashoy***

***Rafiyeva Gulnoza***

*SamDU Kattaqo ‘rg‘on filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti  
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabalari*

**ANNOTATSIYA:** . Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili darsliklarini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar asosida qo‘llaniladigan metodlar va o‘quvchilarga mavzuni qulay va oson tushunishlari uchun qo‘llaniladigan uslublar va tavsiyalar keltirilgan. Jumladan ushbu metodlar, usullar va tavsiyalar bakalavr bosqichida o‘qiyotgan talabalarining mustaqil ta’limlar va o‘quv amaliyot jarayonlarida shakllangan tajribalariga asoslanib “Qayta ishlanadigan chiqindilar” mavzusida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Darslik, imlo, metod, texnologiya, talaffuz qoidalari, chiroyli va mazmunli nutq so‘zlash , gap urg‘usi, egalik shakllari, ravon so‘zlash, ta’lim, kompetensiya.

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta’limning jahon andozlariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish – davr talabi. Aynan shu nuqtai-nazradan olganda, hozirgi o‘zbek adabiy tili qurilishining ilmiy talqinlari ham, lug’aviy grammatik munosabatlar sistema ham yanglandi va rivojlantirildi. Shu sababli pedagogika institutlari hamda universitetlarini bitirib chiqayotgan yoshlar maxsus tayyorgarliksiz ona tili mashg‘ulotlarini talab darajasida o’tkazishga qiynaladilar. Ushbu qiyinchiliklarni oldini olish maqsadida Oliy ta’limda bo’lajak pedagoglar uchun makktab darsliklarini o‘qitishga asoslangan bir qancha fanlar qo‘sildi va o‘quv amaliyotlari, mustaqil ta’lim darsliklari, uzliksiz amaliyot ta’lim mashg‘ulotlari tashkil qilindi. Ushbu o‘zgarishlarga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

asoslanib, quyida tajribalar asosida yig'ilgan ma'lumotlarni bir mavzu doirasida qisman tahlil jarayonida olib bersak.

**Mavzu:** “Tutilmay gapiraman”

**Soat:** 4 soatga mo'ljallangan

**Darsda o'tilishi kerak:** Chiroyli va mazmunli nutq so'zlash, ravon so'zlash, taqdimot tayyorlash, talaffuz qoidalari, gap urg'usi, egalik shakillari.

**Kompitensiya:** mavzuda 4 kompitensiyaga e'tibor berilgan

**1-dars.** Bu dars an'anaviy tarzda o'tkaziladi, o'quvchilar individual baholanadi.

**Darsdan maqsadi:** Bu darsda gapirish ko'nikmasini shakllantirish, gap urg'usini.

Dars avvalida o'quvchilar bilan savol-javob qililinib ularning fikrlari so'raladi:

1.Nima deb o'ylaysiz siz kamera oldida so'zlashga tayyormisiz?

2.Hayotingiz davomida bunday holatni boshingizdan o'tkazganmisiz yoki bu jarayonni kuzatganmisiz?

3.Hamma e'tiborni o'ziga jalg etish va ta'sirli so'zlash uchu o'zini qanday tutish kerak?

4. Jamoat joylarida va omma oldida so'zlarning o'zaro yaqinlar va oila a'zolari bilan suhbatlashishdan qanday farq bor?

5.Bunda nimalarga e'tibor berish kerak?

1-mashq. O'quvchilardan biri chiqariladi va unga biror mavzuda nutq so'zlaydi, o'tirgan o'quvchilar uning nutqini diqqat bilan tinglaydi va nutqida yutuq va kamchiliklarini yozib boradi.

Nutqini tugatgandan so'ng o'quvchilar avval yutuqlarini so'ng kamchiliklarini aytadi, o'quvchilar shu orqali baholanadi.

Bu orqali o'quvchilar o'z nutqidagi yutuq va kamchiliklarini bilib oladi va keyingi safar o'z nutqini mukammallashtiradi.

**Darslikda berilgan matnni o'qib, matn yizasidan savol javob olib boriladi.**

1. Peyrofobiya yoki atixifobiya kasalliklari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. O'zingizda ushbu kasallikning alomatlari bor deb hisoblaydisizmi? Qachon, qanday vaziyatlarda shunday hissiyotlarni boshingizdan o'tkazganingiz haqida gapirib bering.
3. Ushbu kasalliklarning oldini olishda muallif tavsiyasi qay darajada yordam berishi mumkin? Sizda ham bu borada takliflar bormi?
4. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tilimizda muqobili bormi? Javobingizni izohlang.

**2-mashq.** Matn asosida gaplarning kesimi aniqlab, yozing. Undan oldin kelgan so'zlarni alohida ohang bilan qayta o'qib ko'ring.

Ular doskaga chiqarilganda yoki tug'ilgan kunda tadbir uchun so'z berilganda terlab ketishadi.

**Uyga vazifa:** Tanishgan matningiz asosida audiomatn tayyorlang. E'tibor bering, hikoyadagi muallif hamsa boshqa qahramonlar rolini o'zingiz ijro etishingiz lozim .

O'quvchilar audiomatnni telegram orqali o'qituvchiga tashaydi.

**2-dars.** Bu darsda yakka tartibda ishlanadi.

**Dars maqsadi:** O'qib tushinish ko'nikmasini shakllantirish.

**3-mashq.** Omma oldida natq so'zlashga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq 5ta tavsiya yozing.

Namuna: nutqingizni qat'iy ohangda va o'zingizga ishonch bilan boshlang.

**Uyga vazifa.** Gap urg'usi haqida qoidaga amal qilgan holda quyida berilgan matnni audio shaklida yozing. Nutqingizni qayta-qayta eshitib ko'ring. Eshitish jarayonida yondaftarchangizga qanday kamchilik yo'1 yo'qganingizni belgilab boring.

**Dars maqsadi:** O'quvchilarni o'qib tushinish ko'nikmasini shakllantirishga qaratiladi, ifodali o'qish.

Darslikda berilgan matnni o'qituvchi ifodali o'qib beradi. Matn ostidagi savollarga o'quvchilar javob beradi. Matn yuzasidan o'quvchilar fikri so'raladi, ularda qanday takliflar borligiga qiziqiladi.

**2-mashq.** Hasan ko'zlarini chirt yumib , Tolib Yo'l doshning "Mohir qo'llarini qo'shig'i" she'rini to'xtamsdan aytganida uning atrofida kimlar borliginj yozing. Bosh harflar imlosigarioya qiling.

Matnda ajratilgan so'zlar qaysi so'zga tobelanib kelganini aniqlang va namunadagidek yozing.

Namuna: mening oyim, ...

### **"Kim ifodali o'qiy oladi" musobaqasi**

**Uyga vazifa.** Tanishgan matningiz asosida audiomatn tayyorlang. E'tibor bering, hikoyadagi muallif hamsa boshqa qahramonlar rolini o'zingiz ijro etishingiz lozim .

O'quvchilar audiomatnni telegram orqali o'qituvchiga tashaydi.

**3-dars:** Noan'anaviy uslubdagi dars.

**Dars maqsadi:** Dars egalik qo'shimchalari bilan tanishtirish,

### **1-mashq**

*Bu darsda o'quvchilar guruahlarga bo'linib, musobaqa tarzida o'tkaziladi.*

*Har bir shart kartochkalar yordamida baholanib boriladi. Go'lib jamoa sovg'a bilan taqdirlanadi.*

### **1-shart**

**Qo'llaniladigan metod:** *Xotira mashqi*

**1-guruh** . Egalik qo'shimchalarining qo'shilishi sodir bo'ladigan tovush tushishiga 10ta misol yozing.

**2-guruh.** Egalik qo'shimchalarining qo'shilishi natijasida so'zlarda tovush ortishiga 10ta misol yozing.

**3-guruh.** Egalik qo'shimchalarining qo'shilishi natijasida so'zlarda tovush almashishiga 10ta misol yozing.

### **2-shart**

**Qo'llaniladigan metod:** "Aqil charxi" metodi.

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

Bu metoddan o'quvchilarga egalik qo'shimchasi qo'shilsada o'zgarish sodir bo'lmaydigan so'zlarni yozishi aytildi va eng ko'p va xatosiz yozgan jamoa g'olib bo'ladi.

**3-shart.** “Bahrubayt” bo'lib, bu shart 5 daqiqa davan etadi. O'quvchilar tugagan harfga ifodali qilib she'rlarni yoddan aytadi.

Bu metod yordamida o'quvchining xotirasi yaxshilanadi, she'rni ifodali o'qish ko'nikmasi shakllanadi, tezkorlik rivojlanadi.

**4-shart.** Adabiyot darsligida o'tilgan biror asardan qisqa sahna ko'rinishini tayyorlash. Ro'llarni obrazga kirib ijro etish.

Bu usul orqali o'quvchilar orasidagi haqiqiy iqtidorlarni kashf etish.

**Dars yakuni:** ballar hisoblanadi va go'lib jamoa a'zolariga 5 baho va sovg'a bilan taqdirlanadi.

**Uyga vazifa:** “Dahshat” hikoyasini o'qib kelish.

**4-dars.** Bu dars musobaqa tarzida olin boriladi.

**Dars maqsadi:** Darsda o'quvchilarning uyga vazifa qilib berilgan hikoyani tahlil qilish.

O'quvchilar 3 guruha ajraladi. Dars savol-javob bilan boshlanadi, guruhlar javoblariga qarab kartochkalar bilan taqdirlanib boriladi va oxirida ballar hisoblanadi. Guruhlar to'plagan ballariga qarab baholanadi.

Savol-javob sharti

1-savol . Nega aynan “Dahshat”?

2-savol. Hikoya Unsin unitib qoldirgan narsa?

3-savol. Unsining bosh maqsadi qanday edi?

4-savol. Hikoya ichida qanday hikoya keltirib o'tilgan?

5-savol. Unsin sizning fikringizcha nimadan vafot etdi?

### **ADABIYOTLAR:**

1. 7-sinf “Ona tili” darsligi
2. A.G'afurov “ Ona tilini o'qitish prinsiplari va metodlari” T.O‘qituvchi.

1992

3. Sh.Rahmatullayev, A.Xojiyev” O'zbek tilining imlo lug'ati” 1995-yil

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

---

4. B.Mengliyev, O'.Xolyorov "O'zbek tilida universal qo'llanma". T-2013
5. Arxiv.uz
6. Wekipediya